



## IKKI TILLI O'QUV LUG'ATLARI VA ULARNING LEKSIKOGRAFIK ASOSLARI

**Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi,**

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqodchisi.

[mashhuraberdiyeva0999@gmail.com](mailto:mashhuraberdiyeva0999@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1572>

**MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ**

**ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ**

**Qabul qilindi:** 15-aprel 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 17-aprel 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-A

**Maqola raqami:** 17

**KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

leksikografiya, o'quv lug'ati, makrostruktura, mikrostruktura, ikki tillilik, lingvodidaktika, lug'at maqolasi, leksikografik tamoyillar

Ushbu maqolada ikki tilli o'quv lug'atlarini tuzishning nazariy va amaliy leksikografik asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi zamonaviy til o'rgatish metodikasida lug'atlarning tutgan o'rnini aniqlash va ularning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat. Ishda leksikografik manbalarni tahlil qilish orqali o'quv lug'atlarining makro va mikrostrukturasini, undagi ekvivalentlik muammolari hamda lingvodidaktik imkoniyatlar atroflicha yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali o'quv lug'ati nafaqat so'z tarjimasini, balki so'zning semantik, grammatik va madaniy xususiyatlarini o'z ichiga olgan yaxlit tizim bo'lishi lozim. Xulosa qismida ta'lim jarayoniga moslashtirilgan lug'atlarni yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

**ABOUT THE PAPER**

**ANNOTATION**

**Accepted:** 15 april 2026

**Approved:** 17 april 2026

**Volume:** 18-A

**Paper number:** 17

**KEYWORDS**

lexicography, pedagogical dictionary, macrostructure, microstructure, bilingualism, linguodidactics, dictionary entry, lexicographical principles

This article explores the theoretical and practical lexicographical foundations for creating bilingual pedagogical dictionaries. The study aims to determine the role of dictionaries in modern language teaching methodology and to develop principles for improving their structural organization. Through the analysis of lexicographical sources, the macro- and microstructure of educational dictionaries, equivalence issues, and linguo-didactic potential are thoroughly examined. The research findings indicate that an effective pedagogical dictionary should be an integrated system encompassing not only word translation but also the semantic, grammatical, and cultural characteristics of the word. In conclusion, methodological recommendations are provided for developing dictionaries adapted to the educational process.

**Kirish.** Zamonaviy globalashuv sharoitida tillararo muloqotning jadallashuvi va chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortishi leksikografiya sohasi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'ymoqda.

Leksikografiya olamida tan olingan olim L.V. Sherba o'quv lug'atlarining mohiyatini shunday ta'riflaydi: O'quv lug'ati shunchaki so'zlar ro'yxati emas, balki til tizimini o'rgatuvchi metodik qo'llanmadir. Undagi har bir havola o'quvchining lisoniy ongini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, ikki tilli o'quv lug'atlari nafaqat tarjima vositasi, balki til o'rganuvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy lingvodidaktik manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda lug'atchilik amaliyotida an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, foydalanuvchiga yo'naltirilgan, ya'ni o'quvchining lisoniy ehtiyojlarini to'liq qondira oladigan lug'atlarni yaratish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ikki tilli o'quv lug'atlarining leksikografik asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bunday lug'atlar umumiy tillararo lug'atlardan o'zining makro va mikrostrukturaviy qurilishi bilan tubdan farq qiladi. Makrostruktura doirasida so'zliklarning tanlanishi, ularning chastotali xususiyatlari va o'quv darajasiga mosligi o'rganilsa, mikrostruktura doirasida so'zning semantik tarkibi, grammatik tavsifi, talaffuzi va eng muhimi, kontekstda qo'llanilish misollari tahlil qilinadi. Ko'p hollarda o'quv lug'atlarida so'zning faqat tarjimasini berilishi bilan cheklanib qolinishi, o'quvchida o'sha so'zni nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash ko'nikmasining shakllanmasligiga olib keladi.

Hozirgi kunda o'zbek leksikografiyasida ingliz yoki rus tillari bilan qiyoslangan ixtisoslashgan o'quv lug'atlarini yaratishning nazariy metodologiyasi hali to'liq tizimlashtirilmagan. Mavjud lug'atlarining aksariyati akademik xarakterga ega bo'lib, o'quv jarayonining metodik talablari har doim ham javob beravermaydi. Shu sababli, maqolada ikki tilli o'quv lug'atlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini ko'rib chiqish, lug'at maqolasining optimal modelini ishlab chiqish va leksikografik parametrlash tamoyillarini asoslash maqsad qilingan.

**Adabiyotlar tahlili.** Ikki tilli o'quv leksikografiyasi masalalari uzoq vaqtdan beri tilshunos olimlar va metodistlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu sohada tadqiqotlarni shartli ravishda umumiy leksikografiya nazariyasi, o'quv lug'atchiligi va tillararo ekvivalentlik muammolariga bag'ishlangan yo'nalishlarga ajratish mumkin. Leksikografiyaning umumiy nazariy asoslari va lug'at tuzishning fundamental tamoyillari L.V.Sherba, F.P.Sorokoletov va V.V.Dubichinskiy kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan. Xususan, L.V.Sherbaning lug'atlarni tasniflash borasidagi qarashlari o'quv

lug'atlarini mustaqil janr sifatida ajratib ko'rsatishga xizmat qildi [4, 262-304].

U lug'atning turi uning kimga mo'ljallanganligi va qanday maqsadni ko'zlashi bilan belgilanishini ta'kidlab, o'quv lug'atlarining metodik yo'naltirilgan bo'lishi lozimligini asoslab bergan. Zamonaviy leksikografiya bo'yicha ekspertlar B.T.S. Atkins va M.Rundell ikki tilli lug'atlarining asosiy vazifasini quyidagicha belgilaydi: "Ikki tilli o'quv lug'atining muvaffaqiyati undagi so'zlar soni bilan emas, balki foydalanuvchiga begona tilda xatosiz jumlar tuzishda qanchalik yordam bera olishi bilan o'lchanadi" [5.175].

G'arb leksikografiyasida R.Xartman, X.Bejoint va S.Landau kabi tadqiqotchilar o'quv lug'atlarini yaratishda "foydalanuvchi istiqboli" (user perspective) tushunchasini birinchi o'ringa olib chiqishdi [7., 8.]. Ularning fikricha, ikki tilli o'quv lug'ati shunchaki so'zlar ro'yxati emas, balki til o'rganuvchining kodlash (nutq tuzish) va dekodlash (matnni tushunish) jarayonlarini yengillashtiruvchi vositadir. Ayniqsa, korpus lingvistikasining rivojlanishi bilan lug'atlarda so'zlarning qo'llanish chastotasi va kontekstual bog'liqliklarini (collocations) berish masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbek tilshunosligida leksikografiya sohasi, xususan, ikki tilli lug'atchilik bo'yicha Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov va A.Madvaliyev kabi olimlar salmoqli hissa qo'shishgan. [1., 2., 9] Biroq, aynan "o'quv lug'ati" termini va uning o'ziga xos lingvodidaktik xususiyatlari so'nggi yillarda kengroq tadqiq etila boshlandi. Zamonaviy o'zbek leksikografiyasida o'quv lug'atlarining makro va mikrostrukturaviy parametrlarini aniqlashda lingvistik va metodik bilimlar integratsiyasiga ehtiyoj borligi ko'zga tashlanmoqda. Shuningdek, so'nggi yillardagi ilmiy izlanishlarda elektron va mobil o'quv lug'atlarining afzalliklari, ulardagi multimedia imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ham o'rganilmoqda. Ammo, shunga qaramay, ikki tilli o'quv lug'atlarida leksikografik manbalarni tizimlashtirish va ularni o'quv jarayonining muayyan bosqichlariga moslashtirish masalasi hali ham to'liq yechimini topmagan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa ushbu tadqiqot doirasida ko'rib chiqilayotgan nazariy asoslarning naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot ikki tilli o'quv lug'atlarining leksikografik asoslarini o'rganishda tizimli yondashuvga tayangan holda nazariy va amaliy tahlil usullarini uyg'unlashtiradi. Unda lug'at murakkab lingvodidaktik tizim sifatida qaralib, uning tarkibiy elementlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, leksikografik parametrlash, komponent tahlil hamda lingvodidaktik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Shu

asosida o'zbek-ingliz va o'zbek-rus o'quv lug'atlarining makro va mikrostrukturasi, ekvivalentlik darajasi hamda o'quvchi ehtiyojlariga mosligi o'rganildi. Tadqiqot manbalari sifatida zamonaviy o'quv lug'atlari va xalqaro leksikografik nashrlar tanlab olinib, ular maqsadli tanlov asosida tahlil qilindi. Natijalar nazariy xulosalarni amaliy misollar bilan mustahkamlashga xizmat qildi.

**Natijalar.** O'tkazilgan tadqiqotlar va mavjud ikki tilli o'quv lug'atlari tahlili shuni ko'rsatadiki, leksikografik asoslarning samaradorligi bevosita lug'atning makro va mikrostrukturasi ma'lumotlarining o'zaro mutanosibligiga bog'liq. Tahlil natijasida o'quv lug'atlarini shakllantirishning quyidagi asosiy natijalari va ilmiy xulosalari aniqlandi. Birinchidan, makrostrukturaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'quv lug'atlari uchun so'zlik tanlashda (inventory) faqatgina statistik chastotaga tayanish yetarli emas. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, lug'at tarkibiga "tematik guruhlash" tamoyili asosida so'zlarni kiritish o'quvchi xotirasida lisoniy birliklarning tizimli joylashishiga xizmat qiladi. Mavjud o'zbek-ingliz o'quv lug'atlarida ko'pincha alifbo tartibi ustunlik qiladi, biroq natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quv lug'atlarida "so'z uylari" (word families) usulidan foydalanish lug'atning axborot sig'imini oshiradi. Ikkinchidan, mikrostrukturaviy tahlil jarayonida lug'at maqolasining mazmuniy elementlari qayta ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijasida o'quv lug'ati maqolasi uchun quyidagi majburiy parametrlar irarxiyasi belgilandi:

1. Lisoniy yorliqlar: Transkripsiya, urg'u va grammatik tushuntirishlar.

2. Semantik ekvivalentlik: So'zning kontekstual ma'nolarini aniq farqlash (polisemiyaning tartibga solinishi).

3. Kollokatsiyalar (Birikuvchanlik): So'zning nutqda boshqa birliklar bilan bog'lanish imkoniyatlari.

4. Madaniy-marifiy izohlar: Milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan so'zlar (realiyalar) uchun qisqa izohlar.

Uchinchidan, tadqiqot jarayonida ikki tilli o'quv lug'atlarida "ekvivalentlik muammosi" tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, so'zning shunchaki tarjimasini berish o'rniga, tushuntirish (description) usulidan foydalanish o'quvchida noto'g'ri assotsiatsiyalar shakllanishining oldini oladi. Ekvivalentlik muammosi haqida taniqli leksikograf R.R.K.Hartmann tillararo lug'atlardagi asosiy murakkablik haqida shunday deydi: "Ikki til orasidagi ekvivalentlik hech qachon mutlaq bo'lmaydi. O'quv lug'atining vazifasi - bu nomutanosiblikni kontekstual misollar va madaniy izohlar orqali bartaraf etishdir". [6.42] Ayniqsa, o'zbek tilidagi "andisha", "mehmondorchilik" kabi milliy tushunchalarni ingliz yoki rus tillaridagi o'quv lug'atlarida berishda funksional ekvivalentlar va izohli tarjima uyg'unligi eng yuqori natija berishi aniqlandi. Tahlil natijalari asosida o'quv lug'atlari uchun "Integrativ lug'at maqolasi" modeli taklif etiladi. Bu modelda asosiy e'tibor o'quvchining lug'atdan faqat ma'no topish uchun emas, balki nutqiy mahsulot yaratish (production) uchun foydalanishiga qaratilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, misollar (examples) qanchalik hayotiy va zamonaviy bo'lsa, o'quvchining lug'at bilan ishlash motivatsiyasi shunchalik yuqori bo'ladi.

**Muhokama.** Mazkur tadqiqot natijalari ikki tilli o'quv lug'atlarini yaratish jarayoni faqat leksik birliklarni tanlash va tarjima qilish bilan cheklanmasligini, balki u murakkab lingvodidaktik tizim sifatida yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy o'quv lug'ati foydalanuvchiga yo'naltirilgan (user-oriented) prinsip asosida qurilganagina o'zining haqiqiy funksional qiymatini namoyon etadi. Bu esa lug'atni tuzishda nafaqat lingvistik, balki psixologik va pedagogik omillarni ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Avvalo, makrostruktura masalasi muhokama qilinganda, an'anaviy alifbo tartibining ustunligi o'quv jarayonida har doim ham samarali emasligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari tematik va semantik guruhlash

asosida tuzilgan lug'atlar o'quvchilarning so'z boyligini tizimli ravishda kengaytirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bu yondashuv ayniqsa boshlang'ich va o'rta bosqich til o'rganuvchilar uchun muhim bo'lib, ular uchun so'zlar o'zaro bog'liq holda o'zlashtiriladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy o'quv lug'atlarida gibrid model — ya'ni alifbo va tematik tartibni uyg'unlashtirish — eng maqbul yechim sifatida qaralishi mumkin.

Mikrostruktura darajasida olib borilgan tahlillar esa lug'at maqolasining ichki tuzilishi o'quvchi uchun qanchalik qulay va tushunarli bo'lishi kerakligini ko'rsatdi. Xususan, faqat tarjima ekvivalentini berish bilan cheklanilgan lug'atlar o'quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda yetarli samara bermaydi. Aksincha, so'zning grammatik xususiyatlari, kollokatsiyalari va real nutqiy vaziyatdagi qo'llanilish misollarini berish o'quvchiga tilni faol qo'llash imkonini yaratadi. Bu jihat xalqaro leksikografik tajribada ham asosiy mezon sifatida qaraladi.

Ekvivalentlik muammosi muhokamasida aniqlanishicha, ikki til o'rtasida to'liq mos keluvchi birliklar kam uchraydi. Shu sababli, funksional va izohli tarjima usullarini uyg'unlashtirish eng samarali yo'l sifatida baholandi. Ayniqsa, milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarni tarjima qilishda qo'shimcha izohlar berish zarurati yuqori ekanligi kuzatildi. Bu yondashuv o'quvchining nafaqat til, balki madaniyatlararo kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarning o'quv leksikografiyasiga kirib kelishi yangi imkoniyatlarni ochib berayotgani ta'kidlandi. Elektron lug'atlarda audio, video, interaktiv mashqlar va korpus ma'lumotlariga asoslangan misollarning mavjudligi o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Biroq, bunday lug'atlarni yaratishda metodik asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, kelgusida raqamli o'quv lug'atlari uchun alohida leksikografik standartlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar.** "Ikki tilli o'quv lug'atlari va ularning leksikografik asoslari" mavzusida olib borilgan ushbu tadqiqot zamonaviy lug'atchilikning nazariy va amaliy masalalarini lingvodidaktik nuqtai nazardan umumlashtirishga xizmat qildi. Ikki tilli o'quv lug'atlari shunchaki so'zlar tarjimasini to'plami emas, balki til o'rganuvchining lisoniy va nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi maxsus pedagogik vositadir. Ularning leksikografik asosi o'quvchining yosh xususiyatlari, til bilish darajasi va o'quv maqsadlariga qat'iy muvofiqlashtirilishi lozim. Lug'atning makrostrukturasi nafaqat alifbo tartibiga, balki tematik-vaziyatli tamoyillarga asoslanishi kerakligi isbotlandi. Bu yondashuv o'quvchilarga so'zlarni alohida birlik emas, balki ma'lum bir nutqiy mavzu doirasidagi tizim sifatida o'zlashtirish imkonini beradi. Mikrostruktura darajasida esa, lug'at maqolasida so'zning grammatik tavsifi va kontekstual birikuvchanligi (kollokatsiyasi) berilishi o'quvchining nutqiy xatolarini minimallashtirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbek leksikografiyasida ikki tilli o'quv lug'atlarini yaratishda madaniy komponentga (realiyalarga) alohida e'tibor qaratish lozimligi aniqlandi. O'zbek, ingliz va rus tillari misolida ko'riladiki, ekvivalentlik faqatgina ma'no darajasida emas, balki tushunchaning milliy-madaniy bo'yog'ini saqlagan holda izohli tarjima orqali berilsa, til o'rganish jarayoni yanada samarali kechadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda taklif etilgan "Integrativ lug'at maqolasi" modeli yangi avlod darsliklari qoshidagi lug'atlarni va mustaqil o'quv lug'atlarini tuzishda metodologik yo'riqnoma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu nazariy asoslarni raqamli platformalar va mobil ilovalar ko'rinishidagi elektron o'quv lug'atlariga adaptatsiya qilish masalalarini qamrab olishi maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madvaliyev A. O'zbek leksikografiyasi va terminologiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 48–62-b.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 5–12-b.
3. Дубичинский В. В. Лексикография русского языка: учебное пособие. – М.: Наука, 2009. – С. 114–128.
4. Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – С. 265–304.
5. Atkins B. T. S., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – P. 175–210.

6. Hartmann R. R. K. Teaching and Learning Dictionaries. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2001. – P. 35–52.
7. Landau S. I. Dictionaries: The Art and Craft of Lexicography. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 120–145.
8. Béjoint H. The Lexicography of English. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – P. 248–270.
9. Mamatov N. O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari. – Toshkent: Fan, 2004. – 88–95-b.
10. Svensen B. A Handbook of Lexicography: The Theory and Practice of Dictionary-Making. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – P. 450–475.